

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARIDA O'QISH VA YOZISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARI

Axmadova Nozima Murtazo qizi

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti magistranti

Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna

Ilmiy rahbar Buxoro davlat universiteti dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish, ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv va tarbiyachilarning innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari haqida.

Bugungi kunda maktabgacha ta'limning sifat va samaradorligiga erishishga kompetensiyaviy yondashuv, guruhlarni har bir yosh guruhiga mos adabiyotlar bilan boyitib borish, bolalarning kundalik faoliyatini mazmunli va qiziqarli tashkil etish, ularning bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishni ko'zda tutadi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, MTT, tarbiyalanuvchi, bilim, ko'nikma, malaka, nutq, o'qish, yozish, shaxsiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, bilish kompetensiya, innovatsion, pedagogik, texnologiya, rivojlanish sohasi, konstruktiv usullar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье речь идет о формировании навыков чтения и письма у детей дошкольных образовательных организаций, компетентном подходе к обучению и использованию педагогами инновационных педагогических технологий. Сегодня компетентный подход к достижению качества и эффективности дошкольного образования предполагает обогащение групп литературой, подходящей для каждой возрастной группы, содержательную и интересную организацию повседневной деятельности детей, эффективное использование их свободного времени.

Ключевые слова: компетентность, MTT, обучающийся, знания, умения, компетентность, речь, чтение, письмо, личностная компетентность, коммуникативная компетентность, социальная компетентность, когнитивная компетентность, инновационная, педагогическая, технология, поле развития, конструктивные методы.

ABSTRACT

This article is about the formation of reading and writing skills in children of preschool educational organizations, the competency approach to education and the use of innovative pedagogical technologies by educators. Today, the competence approach to achieving the quality and efficiency of preschool education envisages enriching groups with literature suitable for each age group, organizing children's daily activities in a meaningful and interesting way, and making effective use of their free time.

Keywords: competence, MTT, learner, knowledge, skills, competence, speech, reading, writing, personal competence, communicative competence, social competence, cognitive competence, innovative, pedagogical, technology, field of development, constructive methods.

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, unda "men" obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi.

Boshlang'ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va ahloq sub'yekti sifatida yaxlit rivojlanishini talab etadi. Ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish faol ish jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga hos xususiyatdir. Tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatning har xir turlari shakllanadi. Ulardan asosiylari: munosabatda bo'lish faoliyati, bilish, buyumlar bilan bo'ladigan faoliyat, o'yin, oddiy mehnat va o'quv faoliyatlaridir. Ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar birdaniga o'zlashtirib olmaydilar, aksincha ularni tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab boradilar.¹

ASOSIY QISIM

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirishda o'ziga xos metodik, pedagogik, psixologik tayyorgarlik bilan ishlash davr taqazosiga aylandi. Chunki maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirish keng ma'noli tushuncha bo'lib, uni samarali amalga oshirish maktabgacha ta'lim tashkiloti binosining holati, tarbiyachi-pedagoglar, tarbiyachi yordamchilari, ota-onalar hamda bolalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki innavatsion bo'lishi lozimligini talab etadi. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida kompetensiyaviy yondashuv jarayonida pedagogik-psixologik, metodik, badiiy adabiyotlar soni va sifati, har bir yosh guruhiga mos va xos adabiyotlar bilan boyitib borish ham muhim masaladir.²

Bolalarni o'ynab turib o'ylashga undovchi muammoli vaziyatlarni o'yinlarda aks ettiruvchi ta'limiy rivojlantiruvchi o'yin markazlari tashkil etish va ular faoliyatini muvofiqlashtirishda ota-onalar va jamoatchilikning jalb qilinishi va boshqa shu kabi omillar maktabgacha ta'lim mazmunini oshiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, unda "men" obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi.³

3-5 yoshdagi bolalarga mayda motorikani rivojlantirish, bola yozishni o'rganishi uchun uning mayda motorikasini rivojlantirish kerak. Bu uning katta bo'lmagan buyumlarni qiyinchiliksiz boshqarish va ko'z hamda qo'llarning muvofiq harakatini talab etadigan harakatlarni bajara olishini anglatadi. Masalan, xamirdan narsalar yasash yoki rasmlar chizish.⁴

Maktabgacha yoshdagi bolaning qo'lini yozishga tayyorlash uchun quyidagi mashqlarni bajarib ko'ring:

- Qog'ozdan chiziq bo'ylab shakllarni qirqing.
- Rangli qalam, flomaster va bo'yoqlar yordamida chizing va bo'yang.
- Xamir va plastilindan narsalar yasang.
- Konstruktordan modellar yig'ing.
- Mozaikalar bilan ishleng.
- Ilmoqda to'qing.

Mashqlarni doimiy tarzda bolaga qulay tezlikda kattalar bilan birgalikda bajarish lozim.

Aytgancha, barmoqlar harakatida miyaning nutq uchun javob beradigan peshona va chekka qismlari faoliyati kuchayadi: motorikasi rivojlangan bolalar yaxshi gapiradi.

Elementlar va bosma harflarni o'rgatish – 5-7-yosh Barmoqlar bilan chizing

Harflarni ko'pik, patnisga yoyilgan don-dun, terlagan oyna, havoda, asfalt ustida bo'r bilan yoki barmoq bo'yoqlari bilan qog'ozda yozishni o'rganish mumkin. Ularni poliz ekinlari urug'laridan terib chiqish va plastilindan yasash mumkin. Harflarni aytayotganda unga muvofiq tovushlar hamda u bilan boshlanadigan so'zlarni yodga olish kerak.

Harflar va raqamlarni chizish albomida yozing

Ishni elementlarni o'zlashtirishdan boshlang: vertikal va gorizontall chiziqlar, oval va boshqalar. Vazifalarni maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qo'llanmalardan topish yoki mustaqil ravishda chizish mumkin.

Element namunasini chizing va boladan uni takrorlashini so‘rang. Agar xato qilsa, nima uchun aynan shunday qilish kerakligini so‘rang. Dastlabki tajribalar uchun alohida chizish albomini tutish kerak.

Maxsus yozuv daftarlardagi mashqlarni bajaring

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yozuv daftarida ko‘plab foydali mashqlarni uchratasiz: “naqshni davom ettir”, “tasvirni yakunla”, “namunaga qarab chiz”, “nuqtalarni birlashtir” va boshqa h.k. Ushbu mashqlar bolani tartibli yozuv, bosma harflarni yozishga o‘rgatadi. Katak va chiziqlar ichida yo‘nalish olishni osonlashtiradi.

Maktabgacha ta‘lim bolaning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. U ta‘limning keyingi bosqichida, shuningdek, butun hayoti davomida rivojlanib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta‘lim berishda kompetensiyaviy yondashuv bolalarning bilish bilan bog‘liq bo‘lgan ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirish ,axloqiy me‘yorlar va qadriyatlarini rivojlantirish ,boshqa insonlar bilan muloqot qilish, shaxsiy (“Men”konsepsiyasi)ni shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Yozuv – qo‘llarning mutanosiblikdagi harakati, rivojlangan ko‘rish xotirasi, diqqat va o‘tirib ishlashni talab etadigan murakkab ko‘nikma. Maktab yoshidagi bola uchun uni darhol o‘zlashtirish mushkul. Shuning uchun bir qoidaga rioya qiling: biroz yozamiz – dam olamiz. Zo‘riqishni oshirib yuborish bola organizmi rivojlanishiga qattiq ta‘sir qiladi. Bolalarni kuniga 15 daqiqadan ortiq shug‘ullantirmang

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bolalar o‘qishni bilish bilmasligidan qat‘i-nazar, uch yoshidan boshlab so‘zlar va rasmlar o‘rtasidagi farqni ko‘ra boshlaydi. Biroq bola bunday erta yoshda yozishga tayyor bo‘lmaydi: ularning miyasi kerakli ko‘nikmalarni 5-7 yoshga kelib shakllantiradi.⁵

Yozishga tayyorlikni quyidagicha tekshirish mumkin:

- Bolaga bir varaq qog‘oz berib, biror narsa chizishni taklif qiling.
- Rasmning bir qismini bo‘yashni so‘rang.
- Agar bola qog‘ozni doimiy ravishda aylantirib, chiziqlar yo‘nalishini bazo‘r o‘zgartirsa, demak, u harflarni yozishga hali tayyor emas.

Agar bola harflarni o‘rganishni istamasa, uni majburlamang. Yaxshisi kichik motorika va xotirani rivojlantiradigan mashqlar bilan shug‘ullaning.

Bo‘lajak birinchi sinf o‘quvchisiga “yozishni bilish” rasmiy talabi mavjud emas. 5-7 yoshda maktabda yozish uchun qo‘lni tayyorlab borishga e‘tibor berish kerak.

Mashg‘ulotlarni - majburiyatga, o‘zingizni esa jiddiy o‘qituvchiga aylantirmang. Maktabgacha yoshdagi bolaning o‘qib-o‘rganishi qiziq o‘yinni yodga solishi lozim. Agar ota-onalar, eng muhimi kichkintoylarda kalligrafiyani o‘zlashtirishga qiziqish

bo'lsa, harflar elementlari ustida ishlashingiz mumkin. Bunday mashqlarni maktabgacha yoshdagi bolalarning yozuv daftarlarida uchratish mumkin.

Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllanishida birinchi navbatda oilaning, ota-onaning hamda uni o'rab turgan muhitning o'rni va ahamiyati katta ekan. Bu borada prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va xalqiga murojaatnomasida yangi O'zbekistonda uchinchi Renesansni barpo etishda beshta xalqa ichida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini va oilani, beshta ustun ichida esa maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari va ota-onalarning hamkorlikdagi muhim mas'uliyatli vazifalariga to'xtalib o'tgan edilar.⁶ Shu bilan birga I.V. Grosheva, L.G. Evstafeva, D.T. Maxmudova, Sh.B. Nabixanova, S.V. Pak, G.E. Djanpeisova, M.R. Isxakovalar ham bu mavzu yuzasidan "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturini ishlab chiqishgan. Bu dasturda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarining har biriga alohida ilmiy-uslubiy yondoshilgan.⁷

Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllanishida amalga oshiriladigan vazifalarning huquqiy asosi sifatida "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonuni xizmat qiladi. Bunda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllanishiga xizmat qiladigan maktabgacha ta'lim va tarbiya tashkilotlari hamda tarbiyachi pedagoglar, ota-onalarning huquq va majburiyatlari mustahkamlangan. Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida esa bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishning mavjud shart-sharoitlari va imkoniyatlari, kamchiliklari o'rganilgan hamda 2030 yilgacha bu jarayonda amalga oshiriladigan vazifalar belgilab berilgan.⁸

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki tarbiyachi rivojlanmasa, maktabgacha ta'lim rivojlanmaydi. Tarbiyachining rivojlanishi esa, o'z ustida tinimsiz izlanishi, ta'lim-tarbiyani uyg'unlashtirgan holda yangiliklar yarata olish, xalq pedagogikasini chuqur bilishi bilan xorij tajribasi yangiliklarini o'zlashtirib, o'z faoliyatini boyitib borishi va ularni amaliyotda qo'llay olishi bilan ahamiyatlidir. Maktabgacha ta'lim boshlang'ich ta'limning poydevori sanaladi. Poydevor mustahkam bo'lsa imorat uzoq yillar qad ko'tarib turadi. Shunday ekan kelajagimiz davomchisi bo'lgan yosh avlodga har tomonlama komil inson qilib, ta'lim- tarbiya berish bugungi kun pedagogining oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ekanligini anglamog'imiz zarur. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini ilmiy nuqtai-nazardan o'rganish, uning ilmiy-uslubiy jihatlarini tahlil qilish va bu borada yangiliklarni joriy etish davr talabi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan.
2. Maktabgacha ёшдаги болалар илк ривожланишига қўйиладиган Давлат талаблари .
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 20-martda “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus
4. Maktabgacha ta’lim muassasalarida qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo‘yicha trening moduli. T.: 2017-y.
5. "Bolangiz maktabga tayyormi?" O‘z. Res. Xalq ta’limi vazirligi Respublika ta’lim markazi, Ma’rifat-Madadkor nashriyoti.
6. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to,,g,,risida”gi qonuni. 2019 yil 16 dekabr. <https://lex.uz>.
7. Qilichova M. X. (2021)Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish usullari. //XXI asr ta’lim tizimida innovatsion va integratsion yondoshuvlar mavzusidagi Xalqaro ilmiy – amaliy onlayn konferensiyasi materiallari.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risidagi VMQ 802-sonli qarori. 2020 yil 22 dekabr. <https://lex.uz>.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to,,g,,risida”gi PQ-4312-sonli qarori. <https://lex.uz>.